

O'QUVCHILARNING ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI VA PLATFORMALARIDAN FOYDALANISH TAYYORGARLIGINI TA'MINLASH METODIKASI

Luiza Muxtarova Umrzakovna

Jahon tillari universiteti ispan tili nazariy kafedrasi talabasi

[muxtarovaluiza@gmail.com](mailto:muxtarovaluiza@gmail.com)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'limga o'quvchilarning turli elektron platforma va ta'limga resurslaridan foydalanishni jadallashtirish, Internet texnologiyalarining ta'limga sifatiga ijobiy ta'sirlari, masofaviy ta'limga tizimi bilim olishni individuallashtirish texnologiyasini ishlab chiqish, elektron resurslar va platformalardan foydalanish texnikalari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** gibrildi ta'limga, internet texnologiyalarini, elektron ta'limga resurslari, Ibrat farzandlari, Ta'limga ilovasi, Khan Academy, elektron kitob platformalari, onlayn kurs, edX, Coursera, Duolingo.

KIRISH

XXI asrga kelib internet texnologiyalari turli sohalarda o'z ravnaqini topdi. Asosan, ta'limga tizimi rivojiga katta hissa qo'shdi. Internet texnologiyalarining rivoji nafaqat ta'limga oluvchining bilim darajasini oshirdi, balki ta'limga beruvchi (o'qituvchi)ga ham ko'plab qulayliklar yaratdi. 2019-yildagi karantin davri ta'limga almashinuvining to'xtashiga sabab bo'ldi. Bu davr ta'limga jarayonlarini davom ettirishga imkon beruvchi vositani topishga muhtoj edi. Internet texnologiyasi bunga yechim bo'ldi. Turli elektron ta'limga resurslari va platformalari, jumladan Zoom, Telegram va Skype platformalari dars jarayonlarining davom etishiga imkon berdi. Maktab o'quvchilari uchun esa televizion darslar taqdim etildi. Bugungi kunga kelib karantin davri to'xtagan bo'lsada, ba'zi xorijiy o'quv yurtlari gibrildi ta'limga asoslangan. Buning sababi shundaki, elektron ta'limga bilim oluvchilarga mustaqil fikrlash, individual rivojlanish, yuqori darajadagi mas'uliyat, mustaqil ishlash, izlanuvchanlik, samaradorikning oshishi, aqliy rivojlanish kabi ko'plab foydalarni olib keladi. Darhaqiqat, gibrildi ta'limga bu onlayn va an'anaviy ta'limga eng yaxshi tomonlari birlashtirilgan aralash ta'limga tizimi hisoblanadi. Shuningdek, an'anaviy ta'limga o'quvchi yoki talaba o'z bilimlarini mustahkamlashi va qo'shimcha bilimga ega bo'lishi uchun turli internet resurslari va platformalardan foydalanish imkoniyatiga ega. Internetdan turli fanlar va tillarni o'rgatuvchi ko'plab ilovalar va videodarsliklarni topishimiz mumkin. Maqola davomida bir

# "YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 4, April 2024

qancha ta'lismalari va ularidan qanday maqsadlarda foydalanish kerakligini tushuntiraman.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga binoan ta'limgarishga, zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga, ma'naviyatimizni yanada yuksaltirishga uzlusiz ta'limgarishda turli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shular jumlasiga Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 2022-yil noyabr oyida tashkil etilgan "Ibrat farzandlari" loyihasini olishimiz mumkin. Ushbu loyiha xorijiy tillarni bepul, sodda va kreativ usulda o'rgatishni maqsad qilgan. Loyihada professional ustozlar tomonidan 13dan ortiq tillar bo'yicha videodarsliklar yozib olinmoqda. Ibrat Farzandlari bilan turli tillarni qisqa vaqt ichida o'rganuvchilar o'ziga qulay bo'lgan yerdan turib egallashlari mumkin.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi globallashuv davrida internet tarmog'i ta'limgarishda katta o'zgarishlar olib kelmoqda. Elektron ta'limgarishda berish va ta'limgarishni osonlashtiruvchi omil sanaladi. Ko'plab pedagog olimlarning fikricha, an'anaviy ta'limgarishidan ko'ra real vaqtida olib boriluvchi masofaviy ta'limgarishning samaradorligi yuqoriroqdir. Sababi, bu turdagagi ta'limgarishda o'quv jarayoniga ko'pgina qulayliklar olib keladi. Birinchidan, ta'limgarishni oshiradi. Bunda ta'limgarish o'z vaqtini ko'proq individual aktivligini rivojlantirishga sarflaydi. Bu jarayon o'quvchi yoki talabandan mustaqil va erkin shug'ullanishini talab qiladi. Ikkinchidan, o'quv maskanlariga borishga imkoniyati bo'limganlarga, nogironlarga va keksa yoshdagilarga boshqalar qatori teng bilim olish huquqini beradi. Uchinchidan, agarda ta'limgarish o'quv dargohidan ancha olisda joylashgan bo'lsa, u o'qituvchilar bilan elektron ta'limgarish platformalarini qo'llagan holda o'quv jarayonlarini davom ettirishi mumkin. Shular bilan bir qatorda shuni aytishim kerakki, onlayn ta'limgarishda narx-navosi an'anaviy ta'limgarishidan ancha arzon. Shuningdek, bepul ta'limgarish turlari ham mavjud bo'ladi.

Yurtimizda maktab o'quvchilarining onlayn ta'limgarish resurslari va platformalaridan foydalanish qulayliklarini yaratish maqsadida ular uchun turli elektron ta'limgarish platformalarini chiqildi. Bularning ichida eng mashhuri "**Ta'limgarish**" ilovasidir. Ushbu platforma 2019-yilda (korantin davrida) maktab va qo'shimcha ta'limgarish doirasida barcha yoshdagilarning bolalar uchun turli ta'limgarish resurslarini ishlab chiqdi. "**Ta'limgarish**" ilovasi orqali o'quvchi sifatlari ta'limgarishga erishadi. Bu ekotizimning asosini barcha fanlarni oson o'zlashtirishga ko'maklashuvchi vadeodarsliklar,

virtual labaratoriylar, shuningdek, turli murakkablikdagi vazifalarni tashkil etadi. O'quvchi "Ta'lif" orqali istagan faniga oid bilimlarni bepul o'zlashtirishi mumkin. Shuningdek, o'zining yuqori sifatli, bepul videodarsliklari bilan mashhur "**Khan Academy**" platformasi O'zbekiston aholisi orasida ommalashgan. U AQSHdagi nodavlat notijorat tashkiloti bo'lib, 2006-yilda MTI (Massachusetts texnologiya instituti) hamda Garvard universiteti bitiruvchisi Salmon Xon tomonidan tashkil etilgan. Ushbu ilovaning asosiy maqsadi butun dunyo aholisini yuqori sifatdagi va bepul ta'lif bilan ta'minlashdan iborat. Platforma asosan aniq fanlarga yo'naltirilgan va 9 mingdan ortiq videodarsliklarni qamrab oladi. Dastur asosan ingliz tilida olib borilsada, hozirgi kunda 29ta tildagi variantlari mavjud. O'quvchi "Khan Academy" orqali matematika, informatika, kimyo, fizika, iqtisodiyot, biologiya va astronomiya kabi fanlardagi bilimini oshirishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi tasdiqlandi. Unga ko'ra yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik ongini yuksaltiradigan va kichik yoshdagi bolalarning tafakkur doirasini kengaytiradigan adabiyotlar chop etishni qo'llab-quvvatlash va kitobxonlarning istalgan adabiyotlarni tez va oson topishini ta'minlash dasturning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Shunga ko'ra yosh kitobxonlar kitoblarning elektron va audio ko'rinishlarini mobil telefonlari yoki kompyuter qurilmalari orqali olishlari uchun turli elektron kitob platformalari yaratildi. Bular ichida **Kitob.uz** platformasi kichik yoshdagi bolalar adabiyotlarini taqdim etsa, audiobook.edu.uz, e-library, Ziyonet, e-kutubxona, e-lib kabi saytlar barcha yoshdagi kitobxonlarga istagan kitoblarini topish imkonini beradi.

Jahon bo'ylab ta'lif olishning elektron shakli rivojlanib bormoqda. Internetda turli yo'nalishlarda mustaqil ravishda onlayn ta'lif olish imkoniyatini beruvchi resurslar talaygina. Ulardan foydalanish uchun internet va tilni bilish kifoya. Quyida mustaqil onlayn ta'lif olish imkonini beruvchi eng ommabop bepul platformalar haqida ma'lumot beraman.

Nafaqat AQSH, balki butun dunyoning eng nufuzli oliygohi hisoblangan Garvard universiteti turli sohaga doir onlayn kurslarni taqdim etadi. Ushbu portal sizga veb-dasturlash, moliya, dinshunoslik hamda boshqa sohalarga oid ma'ruzalarni taqdim etadi. Bu kurslar orqali sohangizning eng professional mutaxassislari tomonidan berilgan bilimlarni egallashingiz mumkin. Kursni muvaffaqiyatli tugatsangiz, sizni sertifikati bilan taqdirlaydi. Bu sertifikat sizga ishga joylashishingizni yoki dunyoning nufuzli oliyohlariga qabul

# "YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 4, April 2024

qilinishingizni yengillashtiradi. Siz bu kursga <https://online-learning.harvard.edu/> portali orqali ro'yxatdan o'tishingiz mumkin.

Shunga o'xshash platformalardan yana biri – **edX**. Dunyoning eng nufuzli universitetlari – Garvard, Stenford, Boston, Sorbonna, Massachusets texnologiyalar instituti kabilarning professional o'qituvchilari tomonidan o'tilgan ma'ruzalarning videodarslarini topish mumkin. Bu yerda aniq, gumanitar, tabiiy fanlar, kompyuter texnologiyalari bo'yicha ta'limiy videodarslar ham bor. Bundan tashqari foydalanuvchilar darslar yuzasidan o'zaro fikrlar almashish, munozara qilishlari uchun onlayn forumlarga ham qatnashishlari mumkin. Darslar bepul, kurs yakunida to'lov bilan sertifikat olinadi. Kurs manzili: <https://www.edx.org/>

Ham til, ham fanni o'rganish imkoniyatini beruvchi **Coursera** platformasi 2012-yilda Stenford universitetining kompyuter fanlari professorlari Endryu Ng va Dafne Koller tomonidan asos solingan. U turli fanlar bo'yicha onlayn kurslar va sertifikatlar taqdim etadi. Dunyoning mashhur top universitetlari bilan hamkorlikda ishlaydi. Hozirda O'zbekiston ham ushbu platformadan IT (information technology)ning 3ta asosiy yo'nalishlari: Frontend, Python course va IT-English bo'yicha onlayn kurslarda qatnashish imkoniyati mavjud.

Statistikaga ko'ra, ingliz tili ham so'zlashuvchilari soni bo'yicha, ham rasmiy tili bo'lgan davlatlar soniga ko'ra dunyoning dominant tili hisoblanadi. Dunyoning qaysi burchagiga borsangiz, ushbu tilni o'rganayotgan insonlarni topasiz. O'zimning tajribamdan kelib chiqib aytsam, ingliz tilini o'rganayotgan non-native (mahaliy bo'lмаган) so'zlashuvchilar bilan suhbatlashganimda, ularning ko'pi chet tillarini self-study (mustaqil o'qish) orqali turli onlayn kurslar yoki platformalarni qo'llab o'rganayotganligiga guvoh bo'lganman. Ular o'qishning bu turini tanlashlariga turli sabablar keltirgan edi. Biri kursga borishga sharoiti yo'qligini, yana biri bo'sh vaqt yo'qligini, ba'zilari yaxshi tajribali o'qituvchi topolmayotganini sabab qilib ko'rsatgan edi. Ammo suhbatdoshlarimning ko'pi onlayn mustaqil ta'limning samaradorligi an'anaviy ta'limnikidan ancha yuqoriligini ta'kidlagan. Aslini olganda, til o'rganish uchun o'quv markazlariga borib, o'qituvchidan o'rganish shart emas. Agar tilning boshlang'ich darajasini bilsangiz, bilimingizni turli onlayn resurslar orqali oshirishingiz mumkin. Hozirda chet tillarini o'rgatuvchi ommalashgan platformalar ko'p. Masalan, butun dunyoda o'zining qiziqarli va interaktiv darslari, mashg'ulotlari va sertifikati bilan tan olingan **Duolingo** platformasi bugungi kunda 40 tilda 103 xil til kurslarini taklif etadi. Ilavadagi turli mashqlarni bajarish orqali siz ma'lum tildagi

so'z boyligingizni, grammatikangizni va talaffuzingizni oshirishingiz mumkin. Platformaning afzalligi shundaki, siz chet tilini o'rganish uchun ko'p vaqt sarflashingiz shart emas. Kunlik bo'sh vaqtingizni belgilaysiz, va shu vaqtida kirib, mavzuga doir videodarslarni kuzatib, mashqlarni ishlaysiz. Bu ilova shunisi bilan ma'lum tilni o'rganishga vaqt ajratolmayotgan insonlarga qo'l keladi. Har bir darajani tugatganingizda sizni test sinovidan o'tkazadi. Sinovdan muvaffaqiyatli o'tsangiz, hozirgi til darajalarini ko'rsatuvchi sertifikatlar bilan teng o'rinda turuvchi Duolingo sertifikatiga erishasiz.

Xorijiy tillarni o'rganayotgan ba'zi talabalar tilning og'zaki ko'nikmasini rivojlantirishga qiynaladi, chunki ko'plari o'ziga suhbatlashish uchun sherik topolmaydi. Ularga qulaylik yaratish maqsadida dunyo bo'ylab bir tilni o'rganayotgan insonlarni bog'lashga xizmat qiluvchi ilovalar va web saytlar yaratilgan. Masalan, ular ichida eng taniqlilari **uSpeak, FluentU, free4.talk, Lingualia, Busuu, Mosalingua** kabilardir.

### **XULOSA**

Bugungi texnologiya rivojlangan asrda bilim olish yoki chet tillarini o'rganish istagidagi o'quvchi va talabalarda ko'plab qulayliklar mavjud. Ulardan talab qilinadigan narsa faqat va faqat o'qish va ilm sari intilishidir. Ayniqsa, turli elektron resurslarning yaratilishi insonlarga ta'lim olish tezligini yanada oshirdi. Ular orqali o'quvchida istalgan mavzuga doir ma'lumotlar topish imkonи mavjud. Elektron ta'lim platformalari orqali o'qituvchi o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan doimiy aloqada bo'lishi mumkin. Biz Internet texnologiyalarisiz darslarni tasavvur qilolmaymiz, chunki o'qituvchi darsda mavzuni tushuntirishganida yana ham oydinlik kiritish maqsadida Internet resurslari va platformalari orqali turli videolar, qiziqarli mashg'ulotlarni qo'llaydi. Agar o'quvchi darsda mavzuni yaxshi tushunmasa, elektron resurslar yoki ilovalardan mavzu bo'yicha videodarsliklarni topib, qayta o'rganib chiqishi va mashqlarini ishlab mavzuni mustahkamlashi mumkin. Maqolada men chet tillarini va turli fanlarni o'rganishda qo'llagan platformalarim va boshqa ilovalar haqida va ularni nimalarda, qanday qo'llash kerakligini aytib o'tdim. Sizlarga ham turli fanlar yoki xorijiy tillarni o'rganishda ushbu ilovalardan foydalanishingizni maslahat beraman.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. X.X.Muratov. Elektron ta'lif resurslari va multimediali elektron o'qitish vositalari orqali ta'lif muhitining rivojlanshi. Academic Research Educational Science. Vol. 2 no. 1,2021. ISSN: 2181-1383. 1130-1136.
2. M.A.Maxmudova. Sh.N.Nasirova. Elektron resurslarni ta'lifda qo'llashdagi imkoniyatlar samaradorligi. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal.ISSN 2181-063X.
3. D.K.Sherbekov. Elektron platformada masofali ta'lif texnologiyalari. International Scientific Journal vol. 1. Issue . UIF-2022: 8.2. ISSN: 2181-3337
4. Р.Ҳамдамов, У.Бегимқулов, Н.ТайлоқовБ. Таълимда Ахборот Технологиялари «Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси». Тошкент-2010
5. N.M.Jo'raboyev. Ta'lif samaradorligini oshirishda elektron ta'lif resurslarining ahamiyati. "Pedagogs" international research journal. ISSN: 2181-4027. 130-138 b.

**Internet saytlari:**

1. [https://kun.uz/uz/news/2020/02/28/til-bilishning-ozи-kifoya-eng-yaxshi-bepul-onlayn-talim-platformalari](https://kun.uz/uz/news/2020/02/28/til-bilishning-ozি-kifoya-eng-yaxshi-bepul-onlayn-talim-platformalari)
2. <https://talim.uz/uz/products>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/05/ibrat-academy/>
4. <https://www.xanakademiyasi.uz/loyiha-haqida.html>
5. <https://dist.edu.uz/library/>
6. <https://online-learning.harvard.edu/>
7. <https://www.edx.org/>